



O'RTA OSIYO BUYUK MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK G'OYALARI.

Karimova Shoira

QDU o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qolgani, zamonlar o'tishi bilan bu nodir ma'naviy durdonalarning qimmatini va ahamiyati yanada oshib boraverishi o'rta osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari ularning yaratgan noyob asarlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sharq, uyg'onish davri, alloma, meros, ma'rifiy meros, buyuk mutafakkirlar, ibrat maktabi, ma'rifatparvar olimlar.

Abstract: This article discusses the life path of great figures, great scholars, brave and heroic children who introduced our people to the world, the fact that their entire activity has become a school of example for today and future generations, the fact that the value and importance of these rare spiritual masterpieces continue to increase over time, the pedagogical ideas of the great thinkers of Central Asia, and the unique works they created.

Keywords: East, Renaissance, scholar, heritage, enlightenment heritage, great thinkers, school of example, enlightenment scientists.

Qadriyatlarimiz tiklangan bir paytda milliy - ma'rifiy boyliklarimiz sirasiga kiruvchi o'tmish donishmandlari, buyuk allomalar va mutafakkirlarning bizga qoldirgan bebaho merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi, zamonlar o'tishi bilan bu nodir ma'naviy durdonalarning qimmatini va ahamiyati yanada oshib boraveradi. Ulug' ajdodlarimizning merosidagi pedagogik g'oyalar xalq pedagogikasida atroflicha o'rganiladi. Chunonchi, xalq pedagogikasi xalqning tarbiya bo'yicha tajribalar majmuyi deb qaraladigan bo'lsa, allomalarimizning yosh avlodni axloqiy tarbiyalash borasidagi pedagogik g'oyalari xalq donishmandligi, xalq dunyoqarashi bilan o'zaro uyg'un va chambarchas bog'liqdir.

Zaminimizda yashab o'tgan. bugun ham dunyo ahlini hayratga solayotgan buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va mislsiz ilmiyijodiy kashfiyotlari, ulardagi axloqiy ta'limotlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish juda muhimdir. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarni barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rangbarang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tom onlam a chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini arzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jam oatchiligim iz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart deb hisoblayman". Bu fikrlar tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqidagi bilimlarimizni kengaytirishga davolat etadi.

MUHAMMAD AL-XORAZMIY(783-850)

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al Xorazmiy 783-yil Xorazmda tavallud topgan. Yevropada "Algorismus" nomi bilan mashhur bo'lgan. U o'z ilmiy faoliyatining asosiy qismini Bag'dodda, xalifa al-Ma'mun boshchiligidagi ilmiy markaz "Bayt ul-hikma"da o'tkazgan. Xalifa al Ma'mun al-Xorazmiyni olim sifatida juda qadrlaganligi bois mazkur ilm dargohini boshqarish ishlarini ma'lum muddat unga topshirgan.

Al-Xorazmiy hind va yunon olimlarining asarlarini puxta o'zlashtirib, ularni yanada rivojlantiradi. U hozirgi zamon matematika fanining fundamental qoidalarining, zamonaviy algebra fanining asoschisi hisoblanadi. Olimning "Al-Jabr val-Muqobala" asaridagi birinchi "Al-Jabr" so'zidan Yevropada "algebra" so'zi kelib chiqqan. U 0 (nol) sonini arifmetikaga olib kirdi va shu tariqa sonlarning o'nlik pozitsion tizimi butun dunyoga tarqaldi. Al-Xorazmiyning sonlar tizimi haqidagi asarlaridan biri

Yevropada "Algorizm" nomi bilan tanildi va bu nomdan zamonaviy "algoritm" so'zi kelib chiqdi. Al-Xorazmiy matematikadan tashqari astronomiya ilmiga oid turli mavzularda bir qancha ilmiy maqolalar yozgan. Ulardan eng mashhuri "Astronomiyaga oid jadvallar" ("Zij") asaridir. Olim geografiya fanining rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan. Uning muhim geografik asarlaridan biri "Yerning tasviri" ("Surat al-Arz") kitobidir.

Mashhur tarixchi Jorj Sarton al-Xorazmiyni "...O'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, barcha davrlarning ham eng buyuklaridan biri" deb ta'rif bergan.

AHMAD AL - FARG'ONIY(798-865)

O'rta asrlarning eng ko'zga ko'ringan

allomalaridan biri Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniyning hayotiva ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda ham oz bo'lib, taxminan 798 yil Farg'onada tug'ilgan. Yevropada "Alfraganus" nomi bilan tanilgan.Olim voyaga yetgach, Bag'dod shahriga ketadi, xalifa al-Ma'mun saroyidagi ilmiy maktab "Bayt ul-hikma"(hikmatiar uyi)da dunyoga dong taratgan mashhur O'rta Osiyo allomalari bilan birga ijod qiladi. Bag'dod va Damashq shaharlarida olib borilgan qator astronomik tajribalarda faol ishtirok etadi. Olim 861 yil Nil daryosi

suvining miqdorini o'lchash uchun mo'ljallangan Qohiradagi Ravdo oroliga o'matilgan nilometrni ta'mirlagan. Bu uning iqtidorli muhandis ekanligidan ham dalolat beradi.

Al-Farg'oniyni asosiy astronomik asari "Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to'plami"dir. Shuningdek, "Geometriya va arifmetika yordamida mukammal shimoliy va janubiy asturloblami yasash", "Asturlobdan foydalanish haqida kitob", "Oy yer ustida yoki uning ostida ekanida vaqtni aniqlash", "Quyosh soatini yasash", "AlXorazmiy zijini tushuntirish" kabi asarlari ma'lum. Al-Farg'oniyni astronomiyaga oid asarlari bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik bo'lib keldi. Olim bundan tashqari astronomik jihozlar va gidroinshootlar qurish ishlarida katta iste'dod sohibi ekanligini namoyon eta oldi.

ABU NASR FOROBIY(873-950)

Faylasuf va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy Sirdaryoning Forob (O'tror) shahrida tug'ilgan. U Sharqda juda mashhur bo'lib, qadimgi yunon ilmini juda yaxshi bilgani uchun "Sharq Aristoteli", "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan so'ng) nomlari bilan ulug'langan. Farobiy boshlang'ich ma'lumotni o'z vatanida, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida olganidan so'ng Bag'dod, Damashq, Misr kabi yurtlarda ilm olishni davom ettirgan. U 70 ga yaqin til bilgan, ilmning turli sohalariga bag'ishlangan juda katta ilmiy meros yaratgan: falsafa, matematika, tibbiyot, astronomiya, mantiq, grammatika, fizika, kimyo kabi fanlarga oid asarlar yaratgan. "Masalalar manbai", "Qonunlar haqida kitob", "Ruhning mohiyati haqida", "Falsafaga izohlar", "Falsafa tushunchasining ma'nosi" risolalarida mashhur yunon faylasufi Aristotel va boshqa yunon olimlari asarlariga sharhlar yozgan.

Forobiy aqlli insonlar haqida shunday deydi: "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega:

- yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ulami ayyor, aldoqchi degan nom bilan atamoq lozim." "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" asari jamiyatning tuzilishi haqidagi ta'lim otdir. Unda o'zi orzu qilgan fozil jam'iyat, davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, tinchlik, mehnat kabi mavzular yoritilgan.

ABU RAYHON BERUNIY(973-1048) Abu Rayxon Beruniy 973-yil Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tavallud topgan. U o'spirinlik va yoshlik yillarini turli ilmlarni egallashga bag'ishlagan va olim sifatida shakllangan. Zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroqdan tahsil olgan va 16 yoshida ilk astronomik tajribalarini o'tkazgan. U fors, yunon, arab, sug'd, sanskrit tillarini o'rgangan. Xorazmdagi siyosiy vaziyat tufayli olim 998-yil Jurjon shahriga ketadi va shu yerda 1004-yilgacha yirik izlanishlar olib boradi. Astronomiya, tabiiy fanlar, tarix, din tarixi bilan shug'ullanadi. Olimning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari unga katta shuhrat keltiradi.

Beruniy 1004-1007 yillarda Xorazmga qaytib, Xorazmshoh Ma'mun rahbarligidagi ilmiy markazda faoliyat olib boradi. Lekin Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingandan keyin, u G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Bu

yillarda astronomiya va geodeziyaga oid asarlar yaratadi. 1029-yili G 'aznada "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asarini tugatadi. Mahmud G 'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlari sababli Beruniy ham munajjim sifatida bir muddat Hindistonda yashaydi va sanskrit tilini mukammal o'rganib oladi. Olim hindlarning tarixi, urfodati, madaniyati bilan yaqindan tanishadi va o'zining mashhur "Hindiston" asarini yaratadi. Abu Rayhon Beruniy 1048-yili G 'azna shahrida vafot etadi. Qomusiy olimning astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tabobat, farmakognoziya, tarix, filologiya va boshqa fanlar bo'yicha yozib qoldirgan 160dan ortiq asarlari ushbu fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'sha oldi.

ABU ALI IBN SINO(980-1037)

Buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino 980 yil Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. U Buxorodagi ilmiy muhitda ulg'ayadi. Uning yoshligi va o'spirinligi Somoniylar hukmronligi yillariga to'g'ri keladi. U saroyning boy kutubxonasidan foydalanadi. IX asr boshlarida Ibn Sino Xorazmga ko'chib keladi va shoh Ma'mun saroyidagi olimlar bilan tanishadi. Ibn Sino yunon, arab, fors olimlarining kitoblarini, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Roziy, Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarining asarlarini. shuningdek, qadimgi yunon ilmi vakillari Aristotel, Platon. Evklid, Fales, Geraklit, Suqrot, Pifagor, Gippokrat asarlarini chuqur o'rganadi. Buyuk olim falsafa, tabobat, tabiat ilmlariga bag'ishlangan "Shifo kitobi", "Tib qonunlari", "Najot kitobi", "Bilim lar kitobi" kabi yirik asarlarini yozadi.

Ibn Sino ko'plab badiiy asarlar ham yozgan. Ularda ta'lim-tarbiya masalalari o'ziga xos tarzda yoritilgan. U ayniqsa, aqliy hamda axloqiy-ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor bergan.

Ibn Sino matematika, astronomiya, fizika, ximiya, mineralogiya, geologiya, botanika, filologiya, she'riyat va boshqa qator sohalarga oid asarlar yaratgan. Ibn Sino 450dan ziyod yaratgan asarlaridan 242tasigina bizgacha yetib kelgan. Shundan 80tasi falsafa. ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43tasi tabobatga oid, 19tasi mantiqqa, 26tasi psixologiyaga, 23tasi tibbiyot ilmiga, 9tasi etikaga, 4tasi adabiyotga oid. 8tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan yozishmalardan iborat. Yirik qomusiy olim va buyuk iste'dod sohibi Abu Ali Ibn Sino Yevropada Avisenna nomi bilan mashhur bo'lgan.

ABULQOSIM MAHMUD AZ - ZAMAXSHARIY(1075-1144)

Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy Xorazmda tavallud topgan. U dastlabki bilimni o'z davrining savodli. diyonatli, muruvvatli kishisi bo'lgan otasidan oladi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoqni sezgan ota o'g'lini madrasaga o'qishga beradi. Madrasada arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, xattotlik san'atini o'zlashtiradi. 12 yoshga to'lgach, ilm istab avvalo Buxoro shahriga. so'ngra xorijiy o'lkalar Xuroson, Bog'dod, Makka, Damashqqa boradi. Buyuk mutafakkirning boy va ulkan ilmiy merosi diniy ilmlar, tafsirshunoslik, lug'atshunoslik, grammatika, aruz, adabiyot, mantiq, geografiya kabi fanlardan iborat. Mahmud az-Zamaxshariy "al-Mufasssal", "al-Kashshof", "Muqaddimat al-adab", "Asos al-balag'a" va boshqa qator asarlar muallifi. Uning "Muqaddimat al-adab" asari fan, madaniyat, san'at, ijtimoiy hayotning turli sohalari bo'yicha ma'lumot beradi. "al Kashshof" asari esa Qur'onga yozilgan tafsir bo'lib, musulmon dunyosida hozirga qadar asosiy manba hisoblanadi.

Az-Zamaxshariy asarlarining ilmiy ahamiyati olimlar tomonidan yuqori baholanib, unga "Ustoz al-arab va-l-ajam", "Ustoz ad-dunyo", "Ka'bat al-udaba" kabi sharaflil nomlarni berishgan.

MIRZO ULUG'BEK(1394- 1449) Amir Temurning o'g'li Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li, buyuk davlat arbobi va olim Mirzo Ulug'bek 1394 yil tavallud topadi. Uni bolaligida buvisi Saroymulxonim tarbiyaladi. O'zi Qozizoda Rumiyni ustozim deb ta'riflaydi. 1411 yili Shohruh Mirzo 17 yoshli o'g'li Ulug'bekni Movarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinlaydi. Lekin Ulug'bekni harbiy yurishlar emas, ilm-fan ko'proq qiziqtiradi. U 20 yoshlaridavog o'z davrining yirik olimlari safidan o'rin egallaydi, qadimgi yunon astronomlarining astronomiya, matematika sohasidagi kashfiyotlarini chuqur o'rganadi. Mamlakat ravnaqini ko'zlab, bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa qurdiradi. Samarqanddagi madrasada astronomiya maktabi shakllanadi, u yerda turli sohalaridagi olimlarning soni 100 tadan ortib ketadi.

Ulug'bek astronomiya fanini yanada rivojiantirish maqsadida 1424 yildan 1429 yilgacha osmori jismlarini, yulduzlarni o'rganish uchun rasadxona (observatoriya) qurdirdi. Buyuk allomadan bizga to'rtta asar yetib kelgan. Ular "Ziji jadidi Kuragoniy", "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", "Risolayi Ulug'bek", "To'rt ulus tarixi" asarlaridir. Hozir ham Ulug'bekning "Ziji o'z ahamiyatini yo'qotmagan va olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. (Tuzuvchi M .M .Xayrullaevning "Buyuk iste'dod sohiblari" risolasidan qisman foydalanildi)